

**“Maxam-Chirchiq” AJda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish bo’yicha
2026-yil uchun yillik taqvim rejaning I chorak ijrosi bo’yicha
MA’LUMOT**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
1.	“Yangi yil – yangi maqsadlar” mavzusida yil davomida amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar, xodimlarni “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan islohotlar va yillik maqsadlar bilan tanishtirish.	Yanvar	BAJARILDI: Joriy yilning 16-yanvar kuni korxonaning IHQ bo‘linmasi, “AS va SK” ishlab chiqarishining kislota tuz sexi, kimyoviy himoya hamda butlash sexida, 19-yanvar kuni qurilish boshqarmasida, 23-yanvar kuni temir yo‘l sexida, 26-yanvar kuni ta’mirlash-qurilish xo‘jalik boshqarmasida “O‘zbekiston 2030” strategiyasida belgilangan islohotlar hamda ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo’yicha davra suhbatlari tashkil etildi.
2.	Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi mazmun-mohiyatini xodimlar o‘rtasida targ‘ib etish.	Yanvar	BAJARILDI: 1. Joriy yilning 9-yanvar kuni “Maxam-Chirchiq”AJda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan targ‘ibot tadbiri bo‘lib o‘tdi. 2. Joriy yilning 29-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga alohida urg‘u berilgani, shuningdek, davlat xaridlari tizimida shaffoflik va raqobatni ta’minlashga qaratilgan PF-259 va PF-270-sonli Farmonlarda belgilangan vazifalar muhokama qilindi.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
3.	14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Vatanga sadoqat – yuksak ma’naviyat va fuqarolik burchi” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir (ma’ruza, davra suhbat, uchrashuv) tashkil etish. <i>(Bayram arafasi kunlarida radiouzel orqali har kuni ertalab ish vaqti boshlanguniga qadar (10-15 daqiqa davomida) vatanni madh etuvchi qo’shiqlar eshittirilishini tizimli yo’lga qo’yish mumkin).</i>	Yanvar	BAJARILDI: “14-yanvar -Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan “Maxam-Chirchiq” AJda “Armwrestling” sport turi bo’yicha musobaqa tashkil etildi. Tadbir 2 ta vazn toifalarida o’tkazildi va unda korxonaning 30 ga yaqin yoshlari o’zaro bellashishdi.
4.	O’zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo’mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari bo’yicha kengaytirilgan yig’ilishida ilgari surilgan tashabbuslar asosida “Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni” mavzusida tashkilot tizimida keng targ’ibot ishlarini olib borish.	Yanvar	BAJARILDI: 1. “Milliy armiya- ona Vatan qalqoni, tinchligimiz posboni!” shiori ostida korxona ishchi-xodimlari ishtirokida chorlov tashkil etildi. 2. Bayram munosabati bilan Xotin-qizlar Kengashi a’zolari ishtirokida videorolik tayyorlandi va ijtimoiy tarmoqlarda yoritildi.
5.	Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi munosabati bilan xodimlar o’rtasida “Navoiy va Bobur – milliy tafakkur va ma’naviyatimizning ikki buyuk ustuni” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etish. Tadbir doirasida intellektual bellashuv, “So’z sehri” mushoirasi hamda “Bir bayt – bir hikmat” ijodiy chellenji o’tkazish.	Fevral	BAJARILDI: Alisher Navoiy tavalludining 585 hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi munosabati bilan “Maxam-Chirchiq” AJda “Ikki buyuk siymo” hayoti va ijodiga bag’ishlangan badiiy kecha tashkil etildi.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
6.	“2026-yil – “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturining mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish yuzasidan davra suhbatini tashkil etish.	Fevral	BAJARILDI: Joriy yilning 6-fevral kuni korxonaning barcha bo‘lim va sexlari ishtirokida “2026-yil – “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturining mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish maqsadida davra suhbatini tashkil etish.
7.	8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan xodimlar ishtirokida “Ayolga ehtirom” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbiri tashkil etish.	Mart	BAJARILDI: “Kimyogarlar madaniyat saroyi”da “8-mart-Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan “Maxam-Chirchiq” AJda mehnat qilayotgan xotin-qizlar uchun bayram tadbiri tashkil etildi.
8.	21-mart – Navro‘z umummilliy bayram munosabati bilan Milliy qadriyatlar oyligi doirasida xodimlar o‘rtasida “An’ana, urf-odat va qadriyat” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish.	Mart	BAJARILDI: “21-mart – Navro‘z umumxalq bayrami” munosabati bilan joriy yilning 27-mart kuni kimyogarlar bog‘ida bayram sayli tashkil etildi. Bayramda milliy qadriyatlar va an’analarga asoslangan muhit hamda milliy taomlar namoyishi bo‘lib o‘tadi.
9.	Xodimlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida “Sog‘ tanda – sog‘lom fikr” shiori ostida (15-20 daqiqa) jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish.	Haftada 2 marta	BAJARILMOQDA: Korxona ishchi-xodimlari orasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish hamda turli xil kasb kasalliklarini oldini olish maqsadida muntazam ravishda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkazilib borilmoqda.
10.	“Ma’rifat soati”ni o‘tkazish. Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan haftaning har juma kunida eng muhim va dolzarb mavzular haqida ma’lumot berib boruvchi “Siyosiy-ma’rifat soati”ni xodimlar orasida muhokama qilish.	Har hafta	BAJARILMOQDA: Korxonada ma’naviyat soatlarinin tashkil qilish bo‘yicha “Ma’naviyat soati jadvali” ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Tasdiqlangan jadval asosida har haftaning chorshanba va juma kunlari ma’naviyat soati tashkil qilinadi.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
11.	Xodimlarning badiiy tafakkuri, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni boyitish maqsadida teatr va muzeylarga tashriflarini tashkil etish.	Har chorakda	BAJARILMOQDA: Xodimlarni badiiy tafakkuri, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitish maqsadida I chorak davomida jami 975 nafar ishchi-xodimlarning Toshkent shahri va viloyatidagi teatrlarga sayohatlari tashkil etildi.
12.	Xodimlar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini tashkil etish. 1."Birinchi va ikkinchi renessans – buyuk daholar davri". 2."Millat oydinlari" (<i>jadid mutafakkirlari faoliyatini o'rganish maqsadida</i>). 3."Kitob – ma'naviyat ko'zgusi" (<i>kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida</i>) mavzularida.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan korxona ishchi-xodimlari o'rtasida "Boshqaruv raisi Kubogi" uchun "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi. Unda 150 nafar ishchi-xodimlardan tashkil topgan 30 ta jamoa g'oliblik uchun kurash olib bordi.
13.	Xodimlarning dunyoqarashini kengaytirish, odob-axloq me'yorlariga rioya etish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida ma'naviy-ma'rifiy treninglar, seminarlar hamda interfaol mashg'ulotlarni tizimli ravishda tashkil etish.	Har chorakda	BAJARILMOQDA: 1. Joriy yilning 21-yanvar kuni korxona Majlislar zalida tarkibiy bo'linmalar kasaba uyushma qo'mitalari raislari ishtirokida aksiyadorlik jamiyati xodimlarining ma'naviyatini yuksaltirish, xodimlarning kasbiy madaniyati, ish faoliyati davomida hamda ishdan tashqari vaqtda odob-axloqi, tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubining qoidalariga amal qilish yuzasidan seminar o'tkazildi. 2. Toshkent kimyo texnologiyalari institutining 18 nafar talabalariga "Maxam-Chirchiq" AJda diplom oldi amaliyotini o'tash oldidan "Kadrlar tayyorlash bo'limi"da mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha mas'ullar tomonidan yo'l-yo'riq o'tkazildi. 3. Joriy yilning 6-fevral kuni ammiak ishlab chiqarishi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
			ishchi-xodimlari ishtirokida ma'naviyatni yuksaltirish, odob-axloq qoidalariga amal qilish masalalari, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish va bartaraf etish hamda jamiyat xodimlari orasida manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan uchrashuv o'tkazildi. 4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 26-yanvardagi 2-sonli bayoniga muvofiq, joriy yilning 15-fevralidan 15-martigacha "Ayollarni e'zozlash oyligi" doirasida hamda 11-fevral — Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni munosabati bilan korxona xotin-qizlar faollari ishtirokida davra suhbat tashkil etildi. 5. Joriy yilning 27-fevral kuni Chirchiq shahar Madaniyat saroyining katta majlislar zalida "Maxam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyati Jamoa shartnomasining 2025-yilda ikki tomonlama majburiyatlarining bajarilishi yakunlariga bag'ishlangan Konferensiyasi bo'lib o'tdi. 6. Joriy yilning 17-mart kuni din ishlari bo'yicha qo'mita mas'ul xodimi J.Meliqo'ziyev, din ishlari bo'yicha qo'mitasining Chirchiq shahar bo'limi bosh mutaxassisi V.Xamidov hamda korxona korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens boshqarmasi xodimlari ishtirokida korxona ishchi-xodimlari o'rtasida "Jaholatga qarshi ma'rifat"ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati hamda "Diniy radikallashuvni oldini olish" mavzusilarida davra suhbat tashkil etildi.
14.	"Yurtim tarixini o'rganaman" shiori ostida xodimlar ishtirokida tarixiy obidalarga sayohatlar tashkil etish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida I chorak davomida jami 100 nafar ishchi-xodimlar uchun yurtimizning tarixiy

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
			obidalariga sayohatlar tashkil etildi.
15.	Korxonadagi ma'naviy va ma'rifiy ishlarga mas'ul xodimlarning bilim va malakalarini oshirish hamda ularning faoliyatini takomillashtirish maqsadida Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda o'quv kurslarini tashkil etish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: Davlatimiz rahbarining bir qator Farmon va qarorlarida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi hayotimizning barcha jabhalarida to'la-to'kis joriy qilinishi uchun tegishli chora-tadbirlar aniq belgilab berilgan. Shu bois yillik rejaga asosan bir qator bo'lim va sexlarda davlat tili to'g'risidagi hujjatlar ijrosini o'rganish ishlari o'tkazildi.
16.	Korxona ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarini "Ma'naviyat yog'dusi" loyihasi doirasida kitobxonlik, halollik, o'zaro hurmat va shaxsiy rivojlanishga oid iqtiboslar, aforizm, hikmatli iboralar hamda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi "quiz" testlar bilan boyitib borish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: Korxonaning rasmiy ijtimoiy tarmoqlarida "Ma'naviyat ziyosi" loyihasiga asoslanib I chorak davomida jami 46 ta kimyo sohasiga oid siyosiy, kitobxonlik, halollik, o'zaro hurmat, shaxsiy rivojlanishga targ'ib qiluvchi ma'naviy iqtiboslar, aforizm, hikmatli iboralar hamda siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga oid ma'lumotlar yoritildi.
17.	Korxonada amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni korxona rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifalarida va elektron ommaviy axborot vositalarida yoritish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: Korxonada amalga oshirilayotgan barcha ishlar, yangiliklar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam ravishda korxonaning rasmiy veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarida yoritilib borilmoqda. I chorak davomida jami 68 ta ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ijtimoiy tarmoqlarda yoritildi.
18.	Yoshlar va yosh xodimlarni qiynab kelayotgan taklif va muammolar bilan ishlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvini tashkil etish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan haftaning har payshanba kunini "Yoshlar kuni" sifatida belgilanishi munosabati bilan "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda "Maxam-Chirchiq" AJ boshqaruvi raisi - Dilshod Mannonov jamiyatda diplom oldi amaliyotini o'tayotgan

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro holati
			Toshkent kimyo-texnologiyalari institutining 4-bosqich talabalari bilan uchrashdi. Tadbir ochiq muloqot tarzida bo'lib o'tdi.
19.	Korxonada sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida sport tadbirlarini tashkil etish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-avgustdagi 347-sonli "Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq korxona yoshlari o'rtasida sportning "Shaxmat" turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi. 2. Korxona ishchi-xodimlari o'rtasida stol tennisi bo'yicha musobaqa tashkil etildi. Unda korxonaning 20 dan ortiq yoshlari g'oliblik uchun kurash olib borishdi. 3. 9-aprel – buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi hamda korxona tashkil topganligining 85 yilligiga bag'ishlanib erkak xodimlar o'rtasida voleybol turniri o'tkazildi.
20.	Korxona ishchi-xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida kasbga doir ko'rik-tanlovlarni tashkil etish.	Yil davomida	BAJARILMOQDA: Joriy yilning 26-mart kuni "Maxam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyatida "Jamiyatning eng yaxshi yosh kimyoviy tahlil laboranti" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Unda korxonaning turli sexlarida mehnat qilayotgan laborantlar ko'rik-tanlovning 2-sharti amaliyot sharti doirasida mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasiga to'liq rioya qilish hamda berilgan amaliy topshiriqlarni bajarishda o'zaro bellashishdi.

Boshqaruv raisining maslahatchisi



I.S. Kurbanaliyev